

REFERENCES

1. Trask, R. L. (2000). Language and linguistics: The key concepts. Routledge
2. Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2014). An introduction to language. Cengage Learning.
3. Campbell, L. (2013). Historical linguistics: An introduction. Edinburgh University Press.

O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

ERGASHEV JAMSHIDBEK SHERZODJON O'G'LI

Uzbekistan State World Languages University

Supervisor: Mamatova Dilnoza

Uzbekistan State World Languages University

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metodlarning o'quv jarayonida tutgan muhim o'rni haqida so'z yuritiladi. O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat juda ham muhim. Va hozirda o'quvchilar bilan aloqaga kirishish oson emas. Buday vaziyatda interfaol metodlar juda ham to'g'ri yo'ldir. Interfaol metodlar ular o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'r ganuvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini oshiradi va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlar asosan: o'quvchilar o'rtasida turli bahsmunozaralar o'tkazish, mavzu haqida qisqa ma'lumot bergen holda o'quvchilarning mustaqil izlanishi uchun imkoniyat yaratish va ularni ko'proq mustaqil ishlashga o'rgatish, kichik guruhlarga bo'lish orqali ularda jamoviy ishslash qoliyarini rivojlantirish va shu kabi boshqa metodlardan iborat va bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda kata ahmiyatga ega.

Kalit so'zlar. Metod, interfaol metodlar, o'quv jarayoni, interfaol metod turlari, o'quv jarayonidagi samaradorlik.

Ta'lif jamiyatimizdagi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Hozirda yosh avlodni bilim olishga qiziqtirish kundan kunga murakkablashib bormoqda. Shuning uchun o'quvchilar bilan samimiy munosabat qurib ularni darsga qiziqtirish uchun interfaol metodlar eng to'g'ri tanlov bo'moqda. Bu yuzdan

bo'lajak pedagoglarga ham interfaol metodlar orqali darslarni tashkil etish o'rgatilmoque. Interfaol metodlarning samarasi dars unimdonligining o'sishiga ham samarali ta'sir o'tkazmoqda. Chunki bu shakldagi dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning shaxsiy fikirlashi, biror bir mavzuni tahlil qila olish qobiliyati, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qila olish, va bu fikrlari so'glom dalillar yordamida asoslash, muloqotlashish qobiliyati va bahs-munozara olib borish konikmalar shakillanmoqda. Hozirda interfaol dars mashg'ulotlarini tashkil etishda turli usullardan foydalanilmoqda.

Interfaol usullarni qo'llash bo'yicha amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb atashadi [1]. (Taksonomiya tushunchasi-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatları rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Blum taksonomiyasiga ko'ra tafakkur sohasining rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi.

O'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriylar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeanning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi. [2]

Interfaol ta'lim texnologiyasi – o'qituvchi har bir o'quvchining qiziqishlarini o'rganib ular ko'zda tutgan shaklda mashg'ulotlar olib borishni taminlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z intelektual salohiyatiga ega holda darslarni o'qituvchi xohlagani kabi o'zlashtira oladi.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda faol ishtirok etadigan mashg'ulot bo'lib, butun jarayon hamkorlikda kichadi. Interfaol metodlar o'zning quyidagi o'ziga xoh jihatlariga ega:

1. Interfaol metodlar o`qituvchi bilan o`quvchining faol munosabati, birbirini to`liq tushuntirishga asoslanadi.

2. Interfaol metodlarni o`quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo`lmasin, qaerda o`tkazilmasin darsda o`qituvchi bilan o`quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o`zlashtirishlarini ta`minlashi lozim.

3. Bunda o`qituvchi faqat fasilitator (yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.

4. Ushbu metodlar orqali o`quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorланади. [3]

Interfaol metodlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, quyida ilardan bir nechtasini misollar bilan ko'rib chiqamiz. Interfaol mashg'ulot turlariga: "miya hujumi", "mojarro metodi", "dumaloq stol", "uch bosqichli intervyyu", "stol ustidagi ruchka", "akademik munozara", "asalari galasi", "kritik vaziyatni tahlil qilish" va boshqalar kiradi.

"Miya hujumi" metodi: Masalan: Talabalarga pedagogika tarmoqlarini sanab berish topshiriladi. Javob berish jarayonida javob izohlanmaydi yoki o'rinsiz deb rad etilmaydi. Javoblar tugaganidan so'ng barcha talabalar o`qituvchi bilan birga muhokama qiladilar. Yoki psixologiyadan tafakkur operatsiyalarini sanab berish topshiriladi. Gurux a'zolari shu mavzu yuzasidan o'zaro muhokama qiladilar va kelgan fikrlarni daftarga yozadi. Ketin hamma o'z fikrini bayon qiladi. Yozish uchun bir kishini tanlash kifoya. Bu metod guruhni birlashdirib yakdil qiladi.

"Dumaloq stol" metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varog'i davra bo'ylab aylantiriladi. Har bir talaba o'z javobini yozadi va varoqni boshqa talabaga

uzatadi. Javoblar tugagach muhakama bo'ladi. Noto'g'ri javoblar o'chiriladi. To'g'ri javoblar soniga qarab o'quvchilar baholanadi. Masalan: 1. Pedagog mahoratlarini aytib bering. 2. Shaxs komponentlarini belgilab bering va h.k.

“Akademik munozara” metodi: Guruh ikki komandaga bo’linadi, har biriga vaziyatga oid topshiriq beriladi, masalan: “pedagog - muloqoti”. Bunda birinchi guruh muloqotning salbiy tomonlarini tahlil qiladi yani “prokurorlar”. Ikkinci guruh esa vaziyatning ijobjiy tomonlarini izohlab beradi. Vaziyatga oid topshiriq yoki rolli o'yinni muhokama qilish uchun talabalar shu mavzu yuzasidan yetarlicha bilimga ega bo'lishlari kerak. [4]

Xulosa qilib aytganda barcha turdag'i interfaol metodlar o'quvchilarning dars jarayonida keraksiz narsalarga chalg'imasdan o'zlari uchun kerak bo'lgan bilimni to'laqonli o'zlashtirishlari uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. [5] Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Va shu kabi hayotiy mashg'ulotlar ta'sirida ulg'aygan bolalar kelajakda, boshqa o'quv yurtlari va ish yerlarida ham o'zlarining teran fikirlashi, hozirjavobligi bilan ajralib turadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. https://www.researchgate.net/profile/Manzura_Abjalova/publication/349608435_Blum_taksonomiyasi/links/6038069aa6fdcc37a8515b10/Blum-taksonomiyasi.pdf
3. <https://kompy.info/interaktiv-metodlar-va-ularning-turlari.html>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-metodlar-va-ularning-tasnifi>
5. Yo'doshev Q. Yoniq so'z. T.: “Yangi asr avlodi”, 2006